
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Resume: Linguopersonology is the science of linguistic personality. Linguistic individuals differ from each other in profession, lifestyle, religion, social status, gender and age, and these aspects are directly manifested in the speech process. Linguistic personality is a multifaceted concept, and the factors that create it are also diverse. We divide the factors that determine linguistic personality into linguistic and extralinguistic factors. This article examines extralinguistic factors, including age and gender, in the formation of a linguistic personality.

Резюме: Лингвоперсонология – это наука о языковой личности. Языковой личности отличаются друг от друга по профессии, образу жизни, вероисповеданию, социальному статусу, полу и возрасту, и эти аспекты непосредственно проявляются в речевом процессе. Языковая личность – понятие многогранное, и факторы, ее создающие, также многообразны. Факторы, определяющие языковую личность, мы разделяем на лингвистические и экстралингвистические факторы. В данной статье рассматриваются экстралингвистические факторы, в том числе возрастные и половые, в формировании языковой личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JARGONLAR PRESUPPOZITSIYASI

Rahimova Zebiniso Shomansur qizi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Hozirgi tilshunoslik yuzasidan antroposentrik paradigmaning tarkibida o'rganiluvchi pragmalingvistikaning muhim birliklaridan sanalgan presuppozitsiyani barcha til birliklari nuqtayi nazaridan o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida presuppozitsiyaning barcha turi atroflicha yoritilmagan bo'lib, ular o'rganilish bosqichida.

Tilshunoslikdagi presuppozitsiya hodisasi lingvistika va mantiqiy semantika orasidagi ko'prik hisoblanadi. Presuppozitsiya nutq vaziyati orqali ma'lum qilingan gapning to'g'ri tushunib yetilishi va anglanishi uchun eng zarur tarkibiy qismdir. Negaki, presuppozitsiya nutq so'zlanayotgan vaziyat, so'zlovchi va so'zlovchining maqsadi, shuningdek tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan bilimlar kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun so'zlanayotgan gap tinglovchi tomonidan presuppozitsion jihatdan to'g'ri tahlil etilmasa, to'g'ri baholanmaydi va so'zlovchining maqsadi ro'yobga chiqmaydi. Presuppozitsiya so'zlovchining nutq jarayonidagi nutqiy tejamkorlikka intilishi, til birliklarining nutqda sintaktik strukturaga ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Presuppozitsiya atamasi tilimizdagi tag ma'no, ya'ni yuzada berilmagan, lekin tinglovchi tushunishi, anglashi ko'zlangan maqsad va ifoda bilan uzviy bog'liq tushunchadir. Shuning uchun tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalangan yashirin holda aks etgan ma'no tushuniladi.

Presuppozitsiya hodisasini o'rganishda tilshunoslarning asosiy e'tiborini tortgan jihat presuppozitsiyani vujudga keltiruvchi nutq vositalari bo'ldi. Chunki, presuppozitsiya hodisasi til birliklarining lingvopragmatik tadqiqi doirasida gap mazmuniy tuzilishidagi o'ziga xosliklarni o'rganishda alohida o'rin egallaydi. Mavjud barcha tillarda lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi turli signallar bor. Tilshunos U.Rahimov presuppozitsiya hodisasining o'zbek tilida mavjud signallarini leksik vositalar, morfologik vositalar va sintaktik vositalarga bo'lib tasniflaydi[1].

Durdona Lutfullayeva o'zbek tilida mavjud tasdiq gapda inkor presuppozitsiya hodisasiga ishora qiluvchi leksik-grammatik vositalar sifatida ko'makchi, yuklama va ayrim bog'lovchilarni kiritadi, shuningdek, sintaktik vositalar sirasiga istakni ifodalovchi uch tur-

[1] Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Фил.фанлари номзоди дисс. – Андижон, 1994. – Б. 20.

dagi sintaktik qoliplarni kiritadi. Har bir lisoniy vosita o‘ziga xos shakliy tuzilishdagi gaplarni hosil qilishda ishtirok etsa-da, yashirin tarzda qo‘shimcha axborotni ifodalashi jihatidan umumiylikka ega bo‘ladi. Bu lisoniy vositalarga xos yana bir umumiy belgi shundaki, ular asosiy hollarda gap mazmuniga zid bo‘lgan yashirin axborotni yuzaga keltirib, zidlik munosabatini hosil qiladi[1].

Jargonlar presuppozitsiyasini tadqiq etish gap mazmuniy sintaksisini o‘rganishdagi muhim qadam hisoblanadi. Ikkilamchi nomlanishga ega bo‘lgan jargonlar presuppozitsiyasi ancha murakkab hodisa bo‘lib, bunda nutq vaziyati, muloqot ishtirokchilari, muloqotdan ko‘zlangan maqsad asosiy o‘rinni egallaydi.

Jargonlarning hosil bo‘lishidan maqsad turlicha bo‘lganligi uchun ularni anglashdagi holatlar ham turlicha bo‘ladi. Bu jarayonda so‘zlovchi asosiy fikr ifodachisi bo‘lib, presuppozitsiya hodisasi yuzaga kelishi uchun tinglovchining qaysi ijtimoiy guruh vakili ekanligi muhimdir. Ba’zan so‘zlovchi ham jargondan foydalanuvchi guruh vakili bo‘lmasligi mumkin.

Yonimdan qushcha o‘tib ketyapti yoki *G‘isht, menga suv keltir* gaplarida nutq so‘zlovchi o‘z maqsadini tinglovchiga yetkazish uchun jargonlardan foydalanyapti. Aytilganidek, presuppozitsion holatning yuzaga chiqishi uchun tinglovchi ham ifodalangan fikrni aytilganidek anglashi kerak. *Yonimdan qushcha o‘tib ketyapti* gapida so‘zlovchining yonidan rostdan qush o‘tib ketayotgan ekanligini aytmoqchi emas, u qushcha so‘zi orqali chiroyli, nozik qizni ifodalamoqchi. *G‘isht, menga suv keltir* gapida esa so‘zlovchi chindan g‘ishtga suv keltirishni buyurmayapti. U g‘isht so‘zi orqali xunuk, badbashara kishiga murojaat qilmoqda. Bu o‘rinlarda so‘zlovchi yoshlar ijtimoiy guruhiga mansub bo‘lib, o‘z nutqi mobaynida yoshlar jargonidan foydalanmoqda. Yuqorida keltirilganidek, tinglovchi ham yoshlar ijtimoiy guruhiga mansub bo‘lsagina, bu gaplarni o‘z o‘rnida tushunadi va presuppozitsiya jarayoni normal holatda kechadi. Agarda tinglovchi yoshlar ijtimoiy guruhidan bo‘lmasa va jargonlarning qanday mazmunda qo‘llanayotganini bilmasa, so‘zlovchining fikrini to‘g‘ri anglamaydi va presuppozitsiya hodisasi yuz bermaydi.

Novchani keltir va *Oqidan oling*. Yuqorida keltirilgan gaplar ichuvchilar nutqidan olingan bo‘lib, so‘zlovchi novcha va oqi jargonlaridan unumli foydalangan. Novcha va oqi so‘zlari sinonim so‘z sifatida qaralmoqda. Bu o‘rinda ikki so‘z ham aroq ma’nosini anglatadi. Agar tinglovchi ushbu guruhga mansub bo‘lmasa, so‘zlarni o‘z ma’nosida tushunadi va so‘zlovchining niyati ro‘yobga chiqmaydi. Presuppozitsiya yuzaga kelmaydi. Tinglovchi ushbu guruhga mansub shaxs bo‘lganda esa umuman boshqa holat yuzaga keladi, ya’ni so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadi amalga oshadi. Sherigi u istagan harakatni amalga oshiradi.

Mahbusni yaxshilab mehmon qilinglar va *Mahbus parovoz sifatida qo‘lga olinsin.* Yuqoridagi gaplar huquq-tartibot organlari xodimi nutqidan olingan bo‘lib, so‘zlovchi o‘z ijtimoiy guruhiga mansub shaxsga murojaat qilayapti. Bu o‘rinda presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmoqda. *Mehmon qilmoq* va *parovoz* so‘zlari jargon bo‘lib, qamamoq va bosh jinoyatchi ma’nosida qo‘llanmoqda. Agarda suhbat jarayonida boshqa tinglovchilar ham mavjud bo‘lsa va ular bu ijtimoiy guruh doirasiga mansub bo‘lmasa, ular bu jargonlarni o‘z ma’nosida tushunadi. Bu o‘rinda jargondan foydalanishdan maqsad faol ishlasa-da, presuppozitsiya hodisasi yuzaga chiqmaydi.

Shuningdek, savdogar va olib-sotarlar nutqida qo‘llanuvchi jargonlar ham mavjud. Bilamizki, ko‘pchilik jargonlar o‘zbek tili leksikasiga oid so‘zlarni boshqacha ma’noda qo‘llash tufayli yuzaga keladi. Shu tufayli so‘zlovchining nutqida jargonlar uchrasa va tinglovchi jargon birlikni o‘z ma’nosida tushunsa ham qandaydir mazmun anglashiladi. Biroq bu holda ham presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmaydi. Presuppozitsiya sodir bo‘lishi uchun so‘zlovchi anglatmoqchi bo‘lgan mazmunni tinglovchi ham o‘z ma’nosida tushunishi kerak. Xususan, *Qaychidan ehtiyot bo‘ling* gapini savdogarlar ijtimoiy guruhiga mansub so‘zlovchi ishlatganda tinglovchi uchun ham revizordan yoki tekshiruvchidan ehtiyot bo‘ling mazmunidagi gap anglashilsagina to‘liq presuppozitsiya sodir bo‘ladi. Buning uchun tinglovchi ham ayni shu ijtimoiy guruhga mansub shaxs bo‘lishi lozim. Yoki savdogar ijtimoiy guruhiga mansub so‘zlovchining *Mo‘ysafiddan kechga to‘rt o‘rov qoldiring* gapi orqali tinglovchi tomonidan mo‘ysafid so‘zi orqali aroq ma’nosi, butun gap orqali esa aroqdan to‘rt o‘rov qoldirish lozimligi mazmuni anglashilsa, presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘ladi.

Do‘stim, dumlaringdan qutildingmi? va *Kursdoshlar quyonning rasmini chizamizmi?* So‘zlovchi shaxs talaba bo‘lib, o‘z nutqi davomida talabalar tilida faol qo‘llaniluvchi so‘z va iboradan foydalanmoqda. Demak, bu jarayonning asosiy tinglovchilari ham talaba bo‘lsagina, presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘ladi va so‘zlovchining maqsadini barcha birdek tushunadi. Tinglovchilar talaba bo‘lmay, boshqa ijtimoiy guruh vakillari, xususan, shifokor yoki o‘qituvchilar bo‘lganda ular ishlatilayotgan jargonlarning tag ma’nosiga bormasligi va presuppozitsiya hodisasi yuz bermasligi mumkin. Jargonlarning lingvistik xususiyatlarida keltirilganidek, *dum* so‘zi omonim jargon bo‘lib, u

[1] Yusupjanov Elyorbek Usmonali o‘g‘li. Lingvistik presuppozitsiya pragmatik muammo sifatida yuzaga kelishi va o‘rganilishi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. –B. 260-266.

yana o‘g‘ri va bezorilar nutqida ham faol qo‘llaniladi. Bu o‘rinda presuppozitsiya hodisasini o‘rganishda U.Rahimov lingvistik presuppozitsiyaning o‘zbek tilidagi tashqi signallarini keltirganini eslab o‘tamiz. Ular orasida leksik vositalar ham bor edi. Leksik vositalar omonim, sinonim, antonimlardan tashkil topishini tilshunos olim aytib o‘tgan. Demak, *dum* jargoni omonimlikni hosil qilar ekan, uning presuppozitsiyasiga ham qiziqib ko‘rish lozim. *Do‘stim, dumlaringdan qutildingmi?* gapining tinglovchilari o‘g‘ri va bezorilar bo‘lganda presuppozitsiya hodisasi qanday namoyon bo‘ladi? Aytilganidek, o‘g‘ri va bezorilar nutqida dum jargoni poyloqchi ma’nosini beradi. *Do‘stim, dumlaringdan qutildingmi?* gapidan o‘g‘ri yoki bezorining orqasidagi poyloqchilardan qutilgan yoki yo‘qligi ma’nosini beruvchi gap hosil bo‘ladi. Agar so‘zlovchi hali ham talaba ekanligini hisobga olsak, presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmay qolaveradi.

Mehmon qilmoq omonim jargoni huquq-tartibot organlari nutqida qamoqqa olmoq ma’nosida va bezorilar nutqida do‘pposlamoq, ta’zirini berib qo‘ymoq ma’nosini ifodalaydi. *Ayblanuvchini mehmon qilinglar* gapi huquq-tartibot organlari vakili tomonidan aytilganda bezorilar ijtimoiy guruhiga tegishli tinglovchi ayblanuvchini do‘pposlay boshlashi mumkin yoki *quloqni mehmon qilinglar* gapini bezorilar tilidan aytilsa va huquq-tartibot organlari vakili tomonidan tinglansa, gap yetkazuvchini qamoqqa olish mazmunidagi gapni tushunadi. Ikki holatda ham presuppozitsiya hodisasi kuzatilmaydi. Demak, omonim jargonlardan foydalanilgan holatlarda, agarda so‘zlovchi va tinglovchi bir ijtimoiy guruh vakili bo‘lmasa presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmaydi. Bu omonimlar jargonlar uchun chiqarilgan xulosa. Omonimlikning presuppozitsiya hodisasidagi o‘rnini aniqlash lingvistik tadqiqqa muhtoj (boshqa til birliklari doirasida ham).

Sinonim jargonlarning presuppozitsiyasini ko‘rib o‘tamiz. *Yakan, bashli, loy, qurug‘i* kabi jargonlarni tahlilga tortamiz. *Yakan* va *loy* sinonim jargonlari otarchilar nutqida qo‘llanuvchi, pul ma’nosini ifodalovchi so‘zlardir. *Bashli* jargoni mahbuslar nutqida pul ma’nosini ifodalaydi. *Qurug‘i* jargoni poraxo‘rlar, olib-sotarlar nutqida pul ma’nosini anglatadi. Agar so‘zlovchi otarchi bo‘lib, *yakan* va *loy* jargonlaridan foydalansa, bunda faqatgina tinglovchilari otarchilar bo‘lgan holatda presuppozitsiya har ikki jargon almashinib qo‘llanganda ham yuzaga kelaveradi. Biroq otarchi *bashli* yoki *qurug‘i* jargonlaridan foydalanmaydi. Bu jargonlar ishtirokidagi muloqot jarayonida otarchi tinglovchi sifatida qatnashganda ham presuppozitsiya hodisasi yuzaga chiqmaydi. Har to‘rt jargon bir o‘rinda qo‘llanganda ham to‘liq presuppozitsiya sodir bo‘lmaydi. Bir ijtimoiy guruh doirasida qo‘llanuvchi sinonim jargonlar ishtirok etgan holatdagina lingvistik presuppozitsiya to‘liq namoyon bo‘ladi.

Oqi, novcha, mo‘ysafid, bo‘yni uzun kabi jargonlarni tahlilga tortamiz. Bu sinonim jargonlar bir ijtimoiy guruh doirasida sinonimlik qiladi. Yuqoridagi jargonlar ichuvchi shaxslar nutqida faol qo‘llaniladi va aroq ma’nosini ifodalaydi. Bu jargonlar ichidan *oqi* jargoni ijtimoiy guruh chegarasidan chiqib, umumomma nutqiga ham ko‘chgan. Qolgan jargonlar o‘z o‘rnida. *Oqi* jargon qo‘llangan har qanday holatda ham (so‘zlovchi ijtimoiy guruh a’zosi, tinglovchi ijtimoiy guruh a’zosi; so‘zlovchi ijtimoiy guruh a’zosi, tinglovchi boshqa ijtimoiy guruhga mansub; so‘zlovchi boshqa ijtimoiy guruhga mansub, tinglovchi o‘sha ijtimoiy guruh a’zosi; so‘zlovchi boshqa ijtimoiy guruhga mansub, tinglovchi boshqa ijtimoiy guruhga mansub) presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘ladi. *Bo‘yni uzun, novcha, mo‘ysafid,* kabi sinonim jargonlar nutq jarayonida faqat bir holatda ya’ni, so‘zlovchi ham, tinglovchi ham bitta ijtimoiy guruhdan bo‘lsa va bu guruh ichuvchilardan iborat guruh bo‘lgan holatdagina presuppozitsiya hodisasi yuzaga keladi. Boshqa turli ijtimoiy guruhlar nutqida bu hodisa sodir bo‘lmaydi.

Tahlillardan xulosa qiladigan bo‘lsak, sinonim jargonlar ishtirok etgan nutq jarayonida har doim ham lingvistik presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmaydi, bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchining qay ijtimoiy guruhga mansubligi; bir yoki turli xil ijtimoiy guruh vakili ekanligi, shuningdek, jargonlargagina xos bo‘lgan xususiyatlar asosiy omil bo‘lib xizmat qilaveradi.

Jargonlar qatorida antonim jargonlarni kuzatmaganimiz uchun ular ustida tahlil amalga oshira olmadik.

Lingvistik presuppozitsiyani hosil qiluvchi morfologik vositalar qatorida so‘z turkumlaridagi kategoriyalar, ko‘makchi va yuklamalar sanaladi. Biroq jargonlar tarkibida qo‘shimcha yoki nomustaqil so‘z turkumiga tegishli birliklar uchramagani tufayli jargonlarda morfologik vositalar presuppozitsiyasi tahlilga tortilmadi.

Jargonlar doimiy ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo‘lganligi uchun ba’zan bu birliklar ijtimoiy guruh doirasidan chiqib umumomma nutqida ham qo‘llanila boshlaydi. Bunday holatlarda presuppozitsiya hodisasi qanday namoyon bo‘ladi? *Ko‘k, ko‘kat (AQSh dollari), shapka (ustama narx)* va shu kabi jargonlar boshqa ijtimoiy guruhlar muloqot nutqida ham qo‘llaniladi. Biroq so‘zlar jargonlik xususiyatini yo‘qotmaydi. Bu jarayonda ikki xil vaziyat sodir bo‘ladi. Birinchi vaziyatda so‘zlovchi yuqoridagi jargonlardan foydalanuvchi guruh a’zosi bo‘ladi, tinglovchilar esa boshqa ijtimoiy guruh vakili bo‘ladi. Bunda yuqorida aytilganidek, tinglovchilar ham *ko‘k, ko‘kat, shapka* jargonlarini jargon holida tushunadi va presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘ladi. Ikkinchi vaziyatda so‘zlovchi boshqa ijtimoiy guruh a’zosi bo‘ladi, tinglovchilar ham boshqa ijtimoiy guruh a’zosi bo‘ladi. So‘zlovchi

va tinglovchi uchun ham yuqoridagi jargonlar o‘z ma’nosida anglaniladi va presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘ladi. Bundan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, umumomma nutqiga ko‘chgan jargonlarda presuppozitsiya hodisasi turli vaziyatlarda ham namoyon bo‘la oladi.

Jargonlarning lingvistik xususiyatlarida aytib o‘tilganidek, boshqa tillarda kirib kelgan jargonlar ham mavjud. Bu holatda presuppozitsiya hodisasi qanday namoyon bo‘ladi? Ba’zi boshqa tillardan kirib kelgan jargonlar tahlilida bu hodisani ko‘rib o‘tamiz. Tahlil uchun *strelka, pili surot* jargonlarini olamiz. *Strelka* jargoni rus tilidan kirib kelgan bo‘lib, asl tarjimasi ko‘rsatgich bo‘lsa-da, yoshlar jargoni sifatida uchrashuv ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi. *Pili surot* birikmasi arab-fors tilidan olingan bo‘lib, surot ko‘prigi tarjimasini beradi. Jargon sifatida talabalar jargon bo‘lib, imtihon ma’nosini bildirish uchun foydalaniladi. Agarda, *strelkani qachonga urdingiz?* gapi yoshlar tilidan aytilsa va rus tilida so‘zlashuvchi tinglovchi mavjud bo‘lsa, tinglovchi o‘zbek tilini tushunmaydi va faqat *strelka* so‘zini o‘z ma’nosida tushunadi, ko‘rsatgichga oid nimadir so‘ralayotganini anglaydi xolos. Bu jarayonda presuppozitsiya hodisasi yuzaga kelmaydi. O‘zbek va rus tilini biluvchi tinglovchilarda ham ko‘rsatgich mazmunli gapni anglaydi. Yoshlar ijtimoiy guruhiga mansub bo‘lmagan o‘zbek tili vakili *strelka* so‘zining na ruscha tarjimasini biladi va na jargon sifatidagi ma’nosini, bu holatda ham presuppozitsiya hodisasi sodir bo‘lmaydi.

Shuningdek, *do‘stim, yaxshilab tayyorlan, ertaga pili surot bor* gapi talaba ijtimoiy guruhi vakili so‘zlasa va fors-arab tili va o‘zbek tilini birdek tushunadigan kishi tinglasa, u ertaga pili surotdan o‘tish kerak degan mazmunli gapni tushunadi. Agar, faqat fors-arab tili foydalanuvchisi bo‘lsa, surot ko‘prigi haqida gap boryapti deb tushunadi. Demak, o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlardan jargon sifatida foydalanilganda o‘sha til foydalanuvchisi uchun ham, ikki til (jargon uchun olingan so‘z tili va jargon sifatida foydalanayotgan til) foydalanuvchisi uchun ham, faqat jargon sifatida foydalanilayotgan til egasi uchun ham (agar ijtimoiy guruh vakili bo‘lmasa) presuppozitsiya hodisasi hosil bo‘lmaydi.

Jonli nutq vaziyati bilan bog‘liq holda reallashuvchi hodisa presuppozitsiya hodisasi sanaladi. Presuppozitsiyaning to‘g‘ri anglanishida – nutq vaziyati, adresant va adresatga oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar, kontekst hamda til egalarining lisoniy qobiliyati kabi omillar asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayonda nolisoniy omillar gap strukturasida aniq-ravshan aks etmagan, yashirin tarzda ifodalanuvchi presuppozitsiyaning oson tushunilishida yordam beradi.

Resume: The article covers the presupposition direction of linguo-pragmatics, which is a current direction of linguistics. The emergence of jargons, which are considered sociolinguistic units, in the phenomenon of presupposition is considered. In the process, the role of synonymous, homonymous slangs in the presupposition phenomenon was studied and conclusions were noted.

Резюме: В статье рассматривается пресуппозиционное направление лингвопрагматики, которое является современным направлением языкознания. Рассмотрено возникновение жаргонов, которые считаются социолингвистическими единицами, в феномене пресуппозиции. В процессе была изучена роль синонимичных, омонимичных сленгов в феномене пресуппозиции и сделаны выводы.